

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b.,
yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir
o'rinbosari

O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy
markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDVARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv
fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasida professori, huquq
doktori

AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrasida o'qituvchisi

O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasida professori, yuridik
fanlar doktori

J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori
v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi
va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida
professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni
tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik
fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yuridik
fanlar doktori

B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrasida boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida
professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi



german
cooperation

DEUTSCHE ZUSAMMENARBEIT

Nashriyotchi:

giz Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Ushbu nashr GIZning "Markaziy Osiyoda huquqiy
davlatchilikni qo'llab-quvvatlash" dasturi ko'magi doirasida
chop etildi.

Dastur Deutsche Gesellschaft für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik
jamiyati) tomonidan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va
taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) buyurtmasi asosida
amalga oshirilmoqda.

Mazkur jurnalning maxsus sonida keltirilgan ma'lumotlar, xulosalar, fikrlar va talqinlar mualliflarning fikrlaridir, ular
hech qanday tarzda GIZ yoki BMZ nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Bepul tarqatish uchun mo'ljallangan.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES

legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических
наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali
O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agent-

ligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma
bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga
kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga
tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal material-
laridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis
ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN28190f

EISSN281-118

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

5 **КОПЕЦКИ КРИСТОФ**
Приветственное слово

6 **ЦИКО ЯН**
Приветственное слово

9 **САЙДУЛЛАЕВ ШАХЗОД АЛИХАНОВИЧ**
Приветственное слово

11 **СУЛТАНОВ РАВШАН АДILEВИЧ**
Приветственное слово

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA VOJXONA HUQUQI

13 **АЛАНАЗАРЗОДА ШАРОФ**
Законодательство об административных
процедурах и судопроизводстве Республики
Таджикистан: опыт и перспективы реформирования

19 **ПУДЕЛЬКА ЙОРГ**
Комментарий к закону и его роль в судебной
практике: взгляд немецкого судьи

26 **ДОСМАМБЕТОВА ЧОЛПОН МОНОЛДОРОВНА**
Применение административными судами
Кыргызской Республики норм законодательства
об административных процедурах, связанных
с досудебным порядком обжалования

35 **ДУЙСЕНОВА ЖАНАР МУХАМЕДКАЛИЕВНА**
Судебная практика проверки соблюдения
административной процедуры

40 **YUSUPOV SARDORBЕК ВАНODIROVICH**
O‘zbekistonda ma’muriy tartib-taomillarning asosiy
prinsiplarini qo‘llashning ayrim jihatlari

50 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционные основы государственного
управления: некоторые аспекты законодательной
конкретизации

59 **NEMATOV JO‘RABEK NEMATILLOYEVICH**
O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar
to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to‘lishi
arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar

- 72 **ЛИ АДИК**
Система органов государственного управления
в сфере предпринимательской деятельности
- 80 **ХВАН ЛЕОНИД БОРИСОВИЧ**
Роль научных позиций в сфере публично-правового
регулирувания и их перспективы в Республике
Узбекистан
- 86 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda mutanosiblik
prinsipining o'ziga xos o'rni va uning huquqiy
ahamiyati
- 95 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**
Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashning
o'ziga xos xususiyatlari
- 102 **SAMIG'JONOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**
Budjet jarayoni va uning bosqichlari
- 110 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud
tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari
- 118 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning
subyekti sifatida
- 129 **RAJABOVA KARIMA QAHRAMONOVNA**
Saylovga oid nizolarni hal etish usullari
- 135 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**
Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish
shakllari va turlarini tasniflash va tizimlashtirish
- 143 **JURAEVA ASAL BAKHTIYEVNA,**
ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI
A brief analysis of uzbekistan bit practice: investor
and state dispute resolution
- 156 **XUDOYBERGANOVA MAVJUDA HAMROQULOVNA**
Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy
asoslari
- 164 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Институт социальной защиты государственных
гражданских служащих: теоретические и
методологические подходы
-
- 164 **СПИСОК ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ СТРАН
ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА РЕГУЛИРУЮЩИХ
ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР**
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.sn./ACV08107>
UDC: 342.5(045)(575.1)

BUDJET JARAYONI VA UNING BOSQICHLARI

Samig'jonov Fazliddin Rafkatovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası
katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-0622-4529
e-mail: f.samigjonov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjet jarayoni va uning bosqichlari huquqshunos olimlarning fikrlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan budjet jarayonidagi iqtisodiy, huquqiy vasiyosiy jihatlarni bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi, budjet jarayoni ham O'zbekiston siyosatining ajralmas qismi ekanligi, uning samaradorligi mamlakatimizdagi budjet jarayonini huquqiy tartibga solish darajasi bilan belgilanishi isbotlab berilgan. Bundan tashqari, muallif moddiy budjet huquqiy normalari amalga oshirish bo'yicha faoliyatni budjet jarayonida hisoblash mumkinligi, boshqacha aytganda, budjet jarayonidagi budjet huquqiy munosabatlari subyektlarining moddiy budjet huquqlarini amalga oshirish shakli bo'lib, protsessual budjet huquqi normalari bilan tartibga solinishini ilgari surgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari davlat prognozida bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan yalpi ichki mahsulot o'sishi mutlaq raqamlarda, yalpi ichki mahsulot, sanoat mahsulotlari, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, chakanatovar ayatlanmasifoizlarda, iste'mol narxlarini indeksining o'tgani yilning dekabr oyiga nisbatan o'sish sur'atlari ilmiy asoslangan prognoz hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilishi yoritilgan.

Kalitso'zlar: budjet, budjet jarayoni, budjet bosqichlari, makroiqtisodiyot, budjetsiyosati, prinsip, budjet loyihasi, budjet so'rovi, daromad.

БЮДЖЕТНЫЙ ПРОЦЕСС И ЕГО ЭТАПЫ

Самиг'жонов Фазлиддин Рафкатович,
старший преподаватель кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье бюджетный процесс и его этапы анализируются на основе мнений учёных-юристов. Кроме того, автор доказал, что экономические, правовые и политические аспекты бюджетного процесса тесно связаны друг с другом, что бюджетный процесс является неотъемлемой частью бюджетной политики Узбекистана, а его эффективность определяется уровнем правового регулирования бюджетного процесса в нашей стране. Кроме того, автор предположил, что деятельность по реализации материальных бюджетных правовых норм можно рассматривать как бюджетный процесс, иными словами, бюджетный процесс представляет собой форму реализации материальных бюджетных прав субъектов бюджетных правоотношений и регулируется нормами процессуального бюджетного права. Пояснено, что государственный прогноз макроэкономических показателей развития Республики Узбекистан, основанный на законах рыночной экономики и научно обоснованных прогнозных расчётах, включает динамику валового внутреннего продукта в абсолютных цифрах, валовой внутренний продукт производства промышленной продукции, продукции

сельского, лесного и рыбного хозяйства, темпы роста индекса потребительских цен и динамику товарооборота в процентах по сравнению с декабрем прошлого года.

Ключевые слова: бюджет бюджетный процесс, этапы бюджета, макроэкономика, бюджетная политика, принцип, бюджетный проект бюджетная заявка, доходы.

BUDGET PROCESS AND ITS STAGES

Samigjonov Fazliddin Rafkatovich,
Tashkent State University of Law,
Senior Lecturer of the Department of
Administrative and Financial Law

Abstract. In this article, the budget process and its stages are analyzed based on the opinions of legal scholars. In addition, the author proved that the economic, legal, and political aspects of the budget process are closely related to each other, that the budget process is an integral part of the budget policy of Uzbekistan, and its effectiveness is determined by the level of legal regulation of the budget process in our country. In addition, the author suggested that the activities for the implementation of material budget legal norms can be considered as a budget process; in other words, the budget process is a form of implementation of the material budget rights of subjects of budget legal relations and is regulated by the norms of procedural budget law. At the same time, the state forecast of macroeconomic indicators of the development of the Republic of Uzbekistan, based on the laws of a market economy, includes the growth of gross domestic product in absolute figures, gross domestic product, industrial output, and production of agricultural, forestry, and fishery products, as well as retail goods. The dynamics of trade turnover as a percentage and the growth rate of the consumer price index compared to December last year are explained on the basis of scientifically based forecast calculations.

Keywords: budget, budget process, budget stages, macroeconomics, budget policy, principle, budget project, budget request, revenues.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining budjet jarayonida iqtisodiy, huquqiy va siyosiy jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Budjet jarayoni ham O'zbekiston siyosatining ajralmas qismi bo'lib, uning samaradorligi mamlakatimizda budjet jarayonini huquqiy tartibga solish darajasi bilan belgilanadi.

Budjet jarayoni butun huquqiy jarayonga xos xususiyatlar, ya'ni jarayonning bosqichliligi, uning subyekti sifatida davlat organining majburiy ishtiroki, jarayonning dinamik va huquqiy tabiati, birin-ketinligi, huquqiy tartibga solinishi; jarayonning maqsadga muvofiqligi va boshqalar bilan tavsiflanadi. Har bir bosqich uchun bitta vazifa, subyektlarning ma'lum doirasi, bosqichning cheklangan muddatlari, samaradorlik budjet jarayoni bosqichining o'ziga xos xususiyatlariga kiradi.

Shunday qilib, "jarayon" atamasi ma'lum bir natijaga yoki har qanday faoliyatni amalga oshirish tartibiga erishish uchun bajariladigan ketma-ket harakatlar majmuini anglatadi. Masalan, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik protsessi va boshqalar haqida shu ma'noda gapiradilar.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot doirasida huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud tomonidan hal qilishning ba'zi jihatlarini tahlil qilindi.

Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-huquqiy, mantiqiylik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Barcha darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining budjet munosabatla-

rini tartibga solish sohasidagi vakolatlari davlat budjetini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan turli harakatlarda, u tuzilgan paytdan boshlab uning hisoboti tasdiqlangan paytgacha amalga oshirilishi sababli, ularni protsessual nuqtayi nazardan ko'rib chiqish uchun zaruriy asoslar mavjud. Jarayon huquqiy kategoriya sifatida moddiy huquqni amalga oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagi uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, moddiy budjet huquqiy normalarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatni budjet jarayoni deb hisoblash mumkin. Boshqacha aytganda, budjet jarayoni budjet huquqiy munosabatlari subyektlarining moddiy budjet huquqlarini amalga oshirish shakli bo'lib, protsessual budjet huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining budjet qonunchiligi budjet jarayonining asoslarini belgilaydi va uni tartibga soladi. Budjet jarayoni tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 3-moddasida yoritib berilgan, unga ko'ra *budjet jarayoni* – budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning shakllantirilishini, tuzilishini hamda ijrosini nazorat qilish, budjet tizimi budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni.

Budjet jarayoni muayyan tamoyillarga asoslanadi, ularga rioya qilish davlatning butun budjet tizimi barqaror va samarali ishlashi uchun zarurdir. Shu bois budjet jarayoni *barcha budjetlarning birligi, to'liqligi, realligi, muvozanati, shaffofligi* kabi umuman budjet tizimining o'ziga xos xususiyati tamoyillari bilan tavsiflanishi bejiz emas.

Shu bilan birga, faqat budjet jarayoniga xos bo'lgan ma'lum tamoyillar ham mavjud bo'lib, ular *budjetning har yillikligi, vakolatlarning vakillik va ijro etuvchi hokimiyatorganlari o'rtasida taqsimlanishi, budjetko'rsatkichlarining ixtisoslashuvini* o'z ichiga oladi.

Har yillik budjetni shakllantirish tamoyili O'zbekiston Respublikasi Davlat budje-

tini tayyorlash va qabul qilishning budjet yili uchun amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyilning ahamiyati shundan iboratki, u muayyan davrda (budjet yilida) ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini to'liqroq hisobga olish va ularni amalga oshirish uchun budjet mablag'larini maqsadli taqsimlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda budjet tizimining ushbu tamoyili biroz boshqacha mazmun bilan to'ldirilgan. Bu mamlakatimizning budjet qonunchiligiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar bilan bog'liq bo'lib, mamlakatimiz Davlat budjeti bilan bir vaqtda kelgusi ikki yil uchun budjet yo'riqnomalari ham qabul qilingani bilan izohlanadi (Piskotin, 1971).

Budjetni tuzish va ijro etish ijro etuvchi hokimiyat organlarining, budjetni ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijrosini nazorat qilish esa vakillik organlarining vazifalari hisoblanadi. *Buvakillik va ijro etuvchi hokimiyatorganlari o'rtasidagi vakolatlarning chegaralash* tamoyilini ko'rsatadi. Bu tamoyilning o'rni shundan iboratki, budjet jarayonida vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining takrorlanishi istisno qilinadi. Bundan tashqari, vakillik organlarining nafaqat budjet ijrosi, balki budjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonida ham amalga oshiriladigan nazorati davlatning markazlashgan pul jamg'armasi mablag'lari eng oqilona taqsimlanishi va qat'iy belgilangan maqsadlarda foydalanilishining jiddiy kafolatidir.

Budjet jarayonining barcha bosqichlarida *budjetko'rsatkichlarini ixtisoslashtirish* printsiipi qo'llanadi. Bu tamoyilning mohiyati budjet daromadlarini manbalari bo'yicha, xarajatlarini esa ulardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha belgilashdan iborat bo'lib, budjet tasnifi orqali amalga oshiriladi.

Budjet tizimi ochiqligi tamoyili sifatida Budjet kodeksida mustahkamlab qo'yilgan *oshkoralik va shaffoflik* prinsipi budjet jarayonida alohida e'tiborga loyiq. U o'z maz-

muni va ahamiyatiga ko'ra budjet jarayoni uchun muhimdir. Budjet jarayonining ushbu tamoyilini amalga oshirish quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

davlat budjetini va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini, shuningdek, budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirok etishi mumkinligini;

tasdiqlangan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari to'g'risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini (chop etilishini);

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosining borishi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.

Budjet loyihalarini keng muhokama qilish, ularni qabul qilingandan keyin majburiy e'lon qilish, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjet ijrosi to'g'risida vakillik organlariga hisobot berish davlatda budjet faoliyatining shaffofligiga erishish, budjet jarayonida bevosita va teskari aloqalarni o'rnatishga xizmat qiladi. Bu esa budjetni real va minimal yo'qotishlar bilan amalga oshirishga yordam beradi.

Ixtisoslashgan adabiyotlarda budjet jarayonining ba'zi boshqa tamoyillari ham yoritilgan. Xususan, bu budjet jarayoni ishtirokchilari – ijro etuvchi va vakillik organlarining budjet faoliyatiga kirishishidagi izchillik tamoyiliga taalluqlidir. Budjet loyihasi ijro hokimiyati organlari tomonidan tuziladi, budjet to'g'risidagi qonun yoki qaror esa davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan qabul qilinadi.

Budjet jarayoni ketma-ket almashinadigan bir necha bosqichlardan iborat. Budjet jarayonining bosqichi odatda davlat va munit-

sipal organlar faoliyatining alohida, mustaqil va to'liq bosqichi sifatida tushuniladi, buning natijasida budjet bir sifat holatidan ikkinchisiga o'tadi (Gracheva & Sokolova, 1998).

Budjet jarayoni bosqichining yana bir ta'rifi mavjud bo'lib, u budjet huquqi normalari bilan tartibga solinadigan budjetni shakllantirish, taqsimlash va moliyaviy-huquqiy hujjat va moliyaviy rejalashtirish akti sifatida foydalanish bilan bog'liq davlat hokimiyati vakillik hamda ijroiya organlari, budjet jarayonining boshqa ishtirokchilari faoliyatining mustaqil, tugallangan bosqichidir. Boshqacha aytganda, *budjet jarayoni bosqichi* – har bir davlat organining budjet vakolatiga muvofiq ichki birlik va muayyan harakatlarni amalga oshirish bilan tavsiflangan, barcha darajadagi davlat organlari va boshqaruv organlarining budjet jarayonini amalga oshirish bo'yicha harakatlari majmuidir.

Moliya huquqiga oid adabiyotlarda budjet jarayonining bosqichlari soni masalasidagi fikrlar turlicha. Ba'zi hollarda to'rt bosqich mavjudligi, boshqalarda – beshtasi keltiriladi (Gracheva & Sokolova, 1998). Biroq ko'rib turganimizdek, bu holat fundamental xususiyatga ega emas, chunki asosiysi, budjet jarayonining barcha elementlari ajratilgan bosqichlarda aks ettirilgan. Bundan tashqari, ma'lum bir mamlakatning budjet qonunchiligi budjet jarayonining an'anaviy ravishda hech qachon ko'rib chiqilmagan bosqichlarini o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksida Davlat budjeti ko'rsatkichlarini budjet mablag'lari oluvchilarga yetkazish bosqichi belgilangan (100-modda).

Respublikamizda budjet jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) budjetlarni tayyorlash, ko'rib chiqish va qabul qilish;
- 2) budjet mablag'larini oluvchilarga budjetlarni yetkazish;
- 3) budjetlarning ijrosi;
- 4) budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash.

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 16-bobida belgilangan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari loyihalarini tuzish tartibi mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi marta "Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilishi bilan bog'liq.

O'tgan yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini va O'zbekiston Respublikasining navbatdagi moliya yili uchun Davlat budjeti parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan tasdiqlangan edi. "Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun loyihasi va kelgusi ikki yilga mo'ljallangan budjetning asosiy yo'nalishlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Uni tuzish jarayoni BKning 83-moddasida aniq ko'rsatilgan bir necha ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- 1) budjet so'rovini tuzish tartibining yo'nalishi;
- 2) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha budjet so'rovlari va prognozlarini tayyorlash va taqdim etish;
- 3) budjet so'rovlarini ko'rib chiqish va birlashtirish;
- 4) budjet xabarini ishlab chiqish.

Budjet so'rovini tuzish tartibini boshqarish. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili 15-aprelga qadar kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini:

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti loyihasini tayyorlash uchun – budjet mablag'larini taqsimlovchilarga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ushbu muddatlarda O'zbekiston Respublikasi

Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralardan Davlat budjeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflar so'raydi.

Budjet mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng uch ish kuni ichida tegishli budjet so'rovlarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so'ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini:

tegishli budjetlar loyihalarini tayyorlash uchun – tuman va shahar hokimlariga;

budjet so'rovlarini tuzish uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari hamda budjet mablag'lari oluvchilarga yuboradi.

Tuman va shahar hokimlari kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng uch ish kuni ichida tegishli budjetlar loyihalarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari ushbu moddaning beshinchi qismida ko'rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so'ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga va budjet mablag'lari oluvchilarga budjet so'rovlarini tuzish uchun yuboradi.

Budjet kodeksining 85-moddasiga muvofiq, *budjet so'rovi*:

budjet tashkilotining, budjet mablag'lari oluvchining va budjet mablag'larini taqsimlovchining budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi, o'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobotni;

xarajat majburiyatlarining ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo'ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va (yoki) ularning alohida qoidalari ko'rsatilgan reyestrini;

budjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturini;

budjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog'liq holda tuzilgan kelgusi davr uchun budjet buyurtmasini o'z ichiga oladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar budjet so'rovi bilan bir vaqtda tegishli budjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining kelgusi davr uchun prognozlarini taqdim etadi.

Davlat budjetining budjet so'rovini tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, davlat maqsadli jamg'armalari uchun esa ularning boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi.

Budjet kodeksining 92-moddasi budjet so'rovlarini taqdim etishning quyidagi muddatlarini belgilaydi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan tegishli moliya organlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tasarrufdagi budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan budjet mablag'larini taqsim-

lovchilarga – joriy yilning 1-avgustigacha. Shu muddatda budjet mablag'larining boshqaruvchilari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarini boshqaruvchi organlar respublika Moliya vazirligiga budjet so'rovlarini taqdim etadilar.

Budjet so'rovlarini ko'rib chiqish:

tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha – tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar, shuningdek, tumanlar va shaharlar budjetlari loyihalari bo'yicha – Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar tasarrufidagi budjet tashkilotlari va budjet mablag'larini oluvchilar bo'yicha, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtiriladigan ikkinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha – tegishli birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjeti, shuningdek, birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarining obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalari bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan;

birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari loyihalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda davlat maq-

sadli jamg'armalari budjetlarining loyihalari bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi quyidagilarni ko'rib chiqadi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ikkinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha budjet so'rovlarini;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar bo'yicha umumlashtirilgan budjet so'rovlarini.

O'zbekiston Respublikasi BKning 95-moddasiga ko'ra, davlat budjetining loyahasini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan:

makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi;

daromadlarning tashkil topish manbalari bo'yicha Davlat budjeti daromadlari prognozi;

birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet so'rovlari va O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti hisobidan ayrim tadbirlar uchun xarajatlar hajmining prognozi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlari loyihalari asosida ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari davlat prognozi – bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan yalpi ichki mahsulot o'sishining mutlaq raqamlarda, yalpi ichki mahsulot, sanoat mahsulotlari, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, chakana tovar aylanmasini foizlarda, iste'mol narx-lari indeksining o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan o'sish sur'atlarini ilmiy asoslangan prognoz hisob-kitoblari tizimi hisoblanadi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni davlat prognozlash natijalari nafaqat mamlakat davlat budjetini ishlab chiqishda, balki qonun

chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan davlat moliya siyosatining turli sohalarida aniq qarorlar qabul qilinganda ham qo'llanadi.

Davlat budjeti daromadlarining ularni shakllantirish manbalari bo'yicha prognozi budjet to'g'risidagi qonun (qaror), soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining budjet qonunchiligi loyihasi qonun chiqaruvchi (vakillik) organiga kiritilgan kundagi amaldagi sharoitlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblari asosida amalga oshiriladi.

2020-yil uchun respublika budjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi birgalikda Davlat budjeti daromadlari bo'yicha "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida nazarda tutilgan. Shu bilan birga, respublika budjeti daromadlari prognozi daromad manbalari nuqtayi nazaridan quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: to'g'ridan to'g'ri soliqlar; bilvosita soliqlar; resurs to'lovlari va mulk solig'i; boshqa daromadlar va boshqa soliq bo'lmagan to'lovlar. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi daromad manbalari ko'rsatilmagan holda taqdim etiladi.

Davlat budjeti loyihasida xarajatlar Davlat budjeti taqchilligining maksimal hajmini hisobga olgan holda, uni qoplash manbalari-ni belgilagan holda daromadlarning prognoz qilinadigan hajmidan kelib chiqib nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari Davlat budjeti loyihasini ishlab chiqish uchun mas'ul organlar hisoblanadi.

Xulosa

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetlari, viloyatlar va

Toshkent shahar mahalliy budjetlari loyihalari tegishli ma'muriy-hududiy birliklarning moliya organlari tomonidan ishlab chiqiladi, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari esa ularning boshqaruvchisi hisoblanadi va davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga taqdim etiladi.

O'z navbatida, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tegishli budjetlar loyihalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga ushbu moliya organlari tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etadilar, biroq ular tomonidan belgilangan muddatlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalariga taqdim *joriy yilning 81-iyunidan kechiktirmay* taqdim etiladi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar budjetlari va Toshkent shahar budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan alohida tadbirlar

bo'yicha xarajatlarning prognozli hajmi ham hisobga olinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetlarining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining taqchilligi bilan loyihalarini ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

Tumanlar va shaharlar budjetlari loyihalari tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu budjetlar loyihalaridagi daromadlar Davlat budjetiga hisoblangan daromadlar prognozi bo'yicha takliflar va davlat soliq inspeksiyalari, hokimliklarning boshqarmalari hamda davlat organlarining boshqa tuman va shahar bo'linmalari tomonidan taqdim etiladigan boshqa ma'lumotlar asosida ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiy rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoziga muvofiq belgilanadi. Xarajatlar budjet tashkilotlari hamda tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilarning budjet so'rovlari asosida belgilanadi.

REFERENCES

1. Armour, J. (2016, September 28). Principles of Financial Regulation (Illustrated ed.). Oxford University Press.
2. Barr, M., Jackson, H., & Tahyar, M. (2021, April 28). Financial Regulation: Law and Policy (University Casebook Series) (3rd ed.) Foundation Press.
3. Carnell, R. S., Macey, J. R., & Miller, G. P. (2017, March 27). The Law of Financial Institutions (Aspen Casebook, 6th ed.). Wolters Kluwer.
4. Financial law of the Republic of Uzbekistan. (2022). (In Russian) (p. 552). TSUL. Tashkent: Niso Polygraph.
5. Gracheva, Ye. Yu., & Sokolova, E. D. (1998). Financial right (In Russian) (p. 74). Moscow: Novyy yurist.
6. Khozhiyev, E., Kamalov, O., & Artikov, B. (2012). Financial Law: Course of Lectures (In Uzbek) (pp. 231–281). Tashkent.: Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan.
7. Lee, A. A. (2006). Financial law of the Republic of Uzbekistan (In Uzbek) (pp. 231–267). Tashkent: TSUL.
8. Li, A. (2008). Financial law of the Republic of Uzbekistan (In Russian) (2nd ed., revised, p. 236) TSUL. Tashkent: Publishing and Printing Creative House named after Cholpon.
9. Li, A. (2020). Financial and banking law of the Republic of Uzbekistan (In Russian) (p. 245). Tashkent: TSUL, 2020.
10. Piskotin, M. I. (1971). Soviet budgetary law (Basic problems) (In Russian) (p. 66). Moscow: Yurid. lit.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayeov Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, M. Sharifova,
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 16.02.2024-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 21,15 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 21.
TDYU tipografiyasida chop etildi.